



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ergashov Toxir Bozorovich

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti magistranti
toxirergashev@gmail.com*

ANTONI JENKINSON ESTALIKLARIDA XIVA XONLIGINING YORITILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo xonliklari davri tarixiga doir muhim ma'lumotlarni o'zida jam qilgan mazkur davr guvohi bo'lgan muarrix Antoni Jenkinson ma'lumotlari va uning tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'fiy, shayboniylar, Xiva xonligi, savdo-sotiq, tashqi siyosat, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Darun.

ОСВЕЩЕНИЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В МЕМУАРАХ ЭНТОНИ ДЖЕНКИНСОНА

Аннотация: В данной статье анализируются сведения историка Энтони Дженкинсона, который был свидетелем этого периода и его исторического значения.

Ключевые слова: суфии, шайбаниты, Хивинское ханство, торговля, внешняя политика, министр, Новый город, Тирсак, Дарун.

ILLUMINATION OF KHIVA KHANATE IN ANTHONY JENKINSON'S MEMOIRS

Abstract: In this article, the information of the historian Antony Jenkinson, who was a witness of this period and his historical significance, is analyzed.

Key words: Sufi, Shaybanites, Khanate of Khiva, trade, foreign policy, Minister, New City, Tirsak, Darun.

Kirish. Xorazm Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo‘lib, O‘rta Osiyoning eng qadimgi dehqonchilik markazi hisoblanadi. Bu xudud Yevropa va Osiyo davlatlari o‘rtasidagi tranzit savdoning markazlaridan biridir. Bu boy o‘lka o‘z tarixi davomida boyliklari bilan bosqinchilar nazariga tushib kelgan¹. XVI asr boshlarida Movaraunnahrni bosib olgan Shayboniyxon endi Xorazmga ko‘z tika boshladi. Bu paytda Xorazm temuriy sultonlardan Sulton Husayn davlatining bir qismi edi. XVI asrga kelib Xorazm yagona siyosiy markazlashgan davlat emas edi. Sulton Husayn bu xududdagi o‘zaro ichki kurashlar va ko‘chmanchilarning hujumlariga chek qo‘ya olmadi. Shayboniylar va Safaviylar davlati o‘rtasidagi kurash Xorazm taqdirida muhim rol o‘ynadi. 1505 yil Shayboniyxon Xorazmga yurish qilib, poytaxtni qamal qildi. Lekin qattiq qarshilikka uchradi.

Bu paytda Xorazm hokimi So‘fiylardan bo‘lgan Chin So‘fi poytaxtni saqlab qolishga harakat qildi. Lekin o‘z kuchlariga ishonmay, Sulton Husaynga murojat qildi. Buning ustiga qamal qilingan poytaxtda ochlik boshlandi. O‘n oylik qamaldan keyin Shayboniyxon poytaxtni egalladi. Chin So‘fi o‘z amaldorlari tomonidan o‘ldirildi. Chin So‘fini qo‘llab-quvvatlab turgan turkman qabilalari mag‘lub etildi. Natijada Xorazm Shayboniylar davlati tarkibiga kirdi. 1510 yilda Shayboniyxonning o‘limidan keyin Xorazm Safaviylar davlati ta’siriga tushib qoldi. Ismoil Safaviy Xorazm shaharlarini boshqarish uchun Xiva, Xazarasp, Urganch va Vazir shaharlariga o‘z dorug‘alarini yubordi. Abulg‘ozixonning xabar berishicha, Urganchga Subxonquli arab, Vazirga Rahmonquli arab dorug‘a etib tayinlandi. Bu dorug‘alarga qarshi mahalliy aholining noroziligi va qarshiligi kuchayib bordi. Vazir shahrida katta ta’sirga ega bo‘lgan Umar qizilboshi shialarga qarshi chiqdi. Xorazmdagi mahalliy amaldorlar Elbarsxonga Xorazm taxtini egallashni taklif qilishdi. Elbarsxon Vazirda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Lekin Elbarsxonning hokimiyatini barcha shaharlar tan olmadi. Urganch va Xiva mahalliy amaldorlari qarshilik ko‘rsatishdi. Elbarsxon taxtga kelgandan uch oy keyin otliq qo‘shin bilan Urganchga yurish qildi. Urganch dorug‘asi Subxonquli arab qo‘shinlari mag‘lub etildi. Bundan xabar topgan Xiva va Urganch shaharlaridagi qizilboshi qo‘shinlar shaharni tashlab chiqib ketishdi. Natijada 1512 yil Elbarsxon Xorazm xoni bo‘ldi. Xorazm mustaqil davlatga aylandi. 1524 yilda shoh Ismoilning vafot etishi bilan Xorazm xududidagi uning tarafdorlari mahalliy amaldorlarga o‘z xududlarini kengaytirish va mustahkamlashga yordam berishdi.

Metodologiya. Shayboniylar davlatida barcha yerlar xon va uning qarindoshlari mulki hisoblangan. Ular bir necha xududlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning hokimlari doimo bir- birlari bilan o‘zaro kurash olib borganlar. Turli shahar va viloyatlarga ega bo‘lgan xon xonadoni vakillari odatda xon hokimiyatini tan olmaganlar. Ularning har biri o‘z vakolatlariga ega bo‘lib, hamisha mustaqillikka intilardi².

Elbarsxon tuzgan davlat dastlab bir necha mustaqil mulklarga bo‘lingan edi. Ba’zida bir shahardan keladigan daromad bir necha o‘zbek sultonlari o‘rtasida bo‘lingan. Elbarsxon hokimiyatga kelgan birinchi o‘n yillikda ba’zi o‘zbek sultonlari o‘ziga mustaqil edilar, keyinchalik o‘zlarini hokimi mutloq his etib, mustaqil mulklarga aylandilar.

¹ Аскарлов А. А. История Узбекистана. Т. 3. –Т., Фан. 1993. –С. 249.

² Аскарлов А. А. История Узбекистана. Т. 3. –Т. Фан. 1993. –С. 251.

Tahlil va natijalar. Xorazm xududidagi o‘zbek sultonlari orasida Dinmuhammad sulton alohida o‘rin egallagan. XVI asr davomida Xorazmning janubiy xududlari bir necha yirik shaharlar bilan birga Dinmuhammad sultonga tegishli bo‘lgan. Amudaryo qirg‘og‘odagi shaharlar xon qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. Ular harbiy yurishlar davrida xonga harbiy jihatdan yordam bersada, boshqaruv va soliq yig‘ishda mustaqil edilar. Ular o‘rtasida o‘zaro kurashlar ketardi. Bu kurashlar ayniqsa, Elbarsxon o‘limidan so‘ng (1525) avj olib ketdi.

Baybars sultonning o‘g‘li Sulton xo‘ja Vazir shahri hokimi bo‘lib, bir yilcha boshqardi. Urganch hokimligi taxtini Elbarsxonning katta o‘g‘li Sulton G‘oziy egallashi kerak edi. Shu sababli xon qarindoshlari o‘rtasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Sulton G‘ozi tarafdorlari bo‘lgan o‘zbek sultonlari unga qarshi chiqishdi. Ikki o‘rtada Urganchning Xuroson darvozasi o‘rtasida katta jang bo‘ldi. Bu jangda ayrim sulola vakillari halok bo‘lishdi. Qamal qilingan Urganch shahri qarshilik ko‘rsatishda davom etdi. Shaharda oziq-ovqat zahiralari tugab, ochlik boshlandi. To‘rt oydan keyin Urganch shahri egallandi. Shahar himoyachilarining ko‘pchiligi halok bo‘ldi. Hasanqulixon va uning o‘g‘li Bilol Sulton o‘ldirildi³.

Urganch taxtiga So‘fiyonxon (1525-35) o‘tirdi. Xiva, Xazorasp va Qiyotni egallab turgan xonning yaqin qarindoshlari uning yonida to‘planishdi. So‘fiyonxon va uning tarafdorlari Xorazmning janubiy-sharqiy qismini ham bo‘ysundirishdi. Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Darun va Mang‘ishloq Berkasultonning nabirasiga berildi. Aminekxonning to‘rtta o‘g‘li Xiva, Xazorasp, Qiyot, Bog‘obod, Nisa va boshqa shaharlarni o‘zaro bo‘lib olishdi. Ularga Abulxon va Dabistonda yashovchi turkmanlar ham bo‘ysundi.

So‘fiyonxon hokimiyatga kelishi bilan Aminekxon avlodlarining hokimiyati mustahkamlandi. Berka sultonning avlodlari o‘z xududlarin yo‘qotdilar. Oxir-oqibatda Elbarsxonning va Baybars sultonning o‘g‘illari Buxoroga qochishga majbur bo‘ldi. Shu davrda xon hokimiyatiga qarshi turkman qabilarining qarshiligi kuchaydi. So‘fiyonxon o‘limidan keyin taxtga Bo‘g‘achixon, keyin Avaneshton o‘tirdi. Avaneshton hukmronligi yillarida Buxoro xoni Ubaydullaxon (1533-39) Xorazmni egallashga urindi. Ubaydullaxonning Xorazmga yurish qilishiga sabab Erondagi Xorazm sultonlaridan – Dinmuhammad bo‘ldi. Eron shoxi Taxmasp I (1524-76) Ubaydullaxon bilan mustahkam aloqalar o‘rnatdi.

Ubaydullaxon bilan birgalikda Toshkent hokimi Baroqxon, Samarqand hokimi Juvonmardalixon va Hisor sultoni Hamza sulton Xorazmga yurishga otlandi. Bundan xabar topgan Aminekxonning o‘g‘illari Xiva va Xozaraspdan Urganchga Avaneshton oldiga qochishdi. Lekin ular Urganchda qolishni hohlamay, cho‘lga qochib ketishdi. Ubaydullaxon Urganchga bostirib kirdi. Jangda Avaneshton qo‘shinlari mag‘lub bo‘ldi va Avaneshtonning o‘zi o‘ldirildi. O‘sha davr voqealarining guvohi xabar berishicha, Buxoro xoni Urganch aholisiga zulm o‘tkazib, boshqaruvdagi amadorlarni qattiq jazolagan.

Ubaydullaxon Urganchga hokim qilib, o‘z o‘g‘li Abdulazizni qoldirdi. Xorazm to‘rtta qismga bo‘lindi. Ularning bir qismi Ubaydullaxonga, qolgan qismlari Hisor, Samarqand va Toshkent hokimlari o‘rtasida bo‘lindi. Avaneshtonning qarindoshlari

³ Аскарлов А. А. История народов Узбекистана. Т. 2. -Т. Фан. 1947. –С. 182-183.

bo'lgan o'zbek sultonlari Dorunga – Dinmuhammad oldiga qochib ketishdi. 1538 yilda ular turkman qabilaridan yordam olib birlashib, Xivaga qaytib keldilar va shaharni bosib olishdi. Ubaydullaxon Xorazmda qoldirgan qo'shin mag'lub etildi. Abdulaziz Buxoroga qochib ketdi. Shundan keyin Ubaydullaxon o'z hokimiyatini qayta o'rnatish uchun yana qo'shin bilan Xorazmga bostirib kirdi. Lekin Ubaydullaxon qo'shini mag'lub bo'ldi. Dinmuhammad atrofida o'zbek sultonlarining birlashuvi Xorazmning g'alabasini ta'minladi. Lekin sultonlar va shahzodalar o'rtasida yana o'zaro kurashlar avj olib ketdi.

Avaneshxonning katta o'g'li Dinmuhammad sulton garchi xon bo'lmasada, xonlikda katta ta'sirga ega bo'lgan. Dinmuhammad o'zaro sulolaviy kurashlarda faol ishtirok etib, Darunni qo'lga kiritdi. Keyinchalik, Eron shohi Taxmasp Xorazm bilan do'stona aloqalarni o'rnatishga intilganda, Dinmuhammad yangi xududlarni egallash uchun bu fursatdan foydalanib qoldi. Eron va Buxoro o'rtasidagi o'zaro kurashlardan foydalanib, Marvni egalladi.

Dinmuhammadning ukasi Ali sultonning ham ta'siri kuchli edi. Sulolaviy kurashlarda u Hojimaxon tarafida turib, uning Vazir shahri taxtiga o'tirishida muhim rol o'ynadi. Eski an'anaga ko'ra xonlar oq kigizga o'tkazilib ko'tarilgan. Ali sulton Hojimaxonning taxtga o'tkazish jaraynida oq kigizning bir uchini ko'tarib borgan. Buning natijasida u Urganch, Xazorasp va Qiyotni oldi. Darun ham uning ixtiyorida qoldi. Antonio Jenkinsonning xabar berishicha, o'sha davrda o'zaro kurashlar davomida Xorazm shaharlari qo'ldan qo'lga o'tib turgan.⁴ Hojimaxon (1558-1662) o'zaro kurashlarga chek qo'yishga harakat qildi. Lekin kuchlari kamligi sababli markaziy hokimiyatni ushlab tura olmadi. 8

Buxoro xoni Abdullaxon II (1557-98) Xorazmni bo'ysundirishni maqsad qilib qo'ydi. 1575 yilda Hojimaxonning Xurosonda yurishi bilan bandligidan foydalanib, Urganchga yurish qildi. Hojimaxonning yurishdan qaytayotganini eshitib, Abdullaxon uning akalari bilan sulh tuzib chekindi. 1593 yilda u Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi. Abdullaxon har bir shaharlarga harbiy qismlarga ega o'z vakillarini qo'ydi. Hojimaxon o'z o'g'illari va nabiralari bilan Eronga qochishga majbur bo'ldi. Eron shohi Abbos (1587-1623) Xorazmni egallashni ko'zlab unga boshpana berdi.

1595 yil Xiva sultonlari bosib olingan xududlarni qaytarishga urindi. Ular turkmanlar yordami bilan Xorazmning asosiy shaharlarini egalladilar. Abdullaxon o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Xorazmga yana yurish qildi. Bu yurish Xazoraspning bosib olinishi va ba'zi sultonlarning qatl etilishi bilan tugadi. Hojimaxon yana Eronga qochishga majbur bo'ldi. Faqatgina Abdullaxonning o'limidan keyin (1598) Xorazmga qaytib kelib, taxtni egalladi⁵.

Xiva xonligi iqtisodiy hayotida yerlar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yerlarning davlat yerlari, vaqf yer egaligi va xususiy yerlar shakllari mavjud edi. Davlat yerlari xon va uning yaqin qarindoshlariga tegishli bo'lib, odatda ular suv manbalariga yaqin, hosildor yerlardan iborat edi. Vaqf yerlariga madrasa, masjid va diniy muassasalarga tegishli yerlar kirardi. Xususiy shaxslarga tegishli yer-mulklar ichida yirik mansabdor, harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli yer-mulklar katta foizni tashkil etgan.

⁴ Готье Ю. В. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. -М. "ОГИЗ" 1937. – С. 123.

⁵ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. -Т. Чўлпон. 1990.

Qishloq jamoalari egalik qilagan yerlar odatda 8-12 tanob qilib bo‘lib berilgan. Voha iqtisodiyotining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan ko‘plab kanallar va ariqlar muhim o‘rin tutgan. Pitnak, Polvon, G‘azovot, Shoxaboz, Yormish, Qilichniyozbiy, Arna, Bo‘zsuv, Suvolli va Xon kanallari katta ahamiyatga ega bo‘lgan⁶.

Xiva xonligida sun‘iy sug‘orishga katta ahamiyat berilgan. XVI asr o‘rtalarida Yangiariq va Toshli Yormish nomli ikkita kanal qazilgan. Xonlikda Amudaryodan turli tomonlarga chiqarilgan kanallar Xorazm vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirishda, dehqonchilikni rivojlantirishda va umuman iqtisodiy hayotni ta‘minlashda hal qiluvchi omil hisoblangan. Shuni ta‘kidlash kerakki, sun‘iy sug‘orish tarmoqlari hamma vaqt birday bo‘lmay, Amudaryoning toshqinlaridan ko‘p talofat ko‘rgan. Bulardan tashqari, har yili erta bahorda kanallar va ariqlar hashar yo‘li bilan tozalab turilgan. Bu nihoyatda ko‘p kuch va mablag‘ni talab etuvchi ishga minglab kishilar jalb etilgan⁷. Yerlar davlat va xususiy kishilar qo‘lida bo‘lib, ularning muayyan qismi vaqfga berilgan. Dehqonchilik va bog‘dorchilikda paxta, bug‘doy, arpa, jo‘xori va boshqa turdagi mahsulotlar yetishtirilgan. Ipakchilik bilan ham shug‘ullanilgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, xorazmliklar mohir mirishkor va mehnatsevar kishilar sifatida dong taratganlar.

Xulosa. Xonlikda chorvachilik, ayniqsa, turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar orasida yaxshi rivojlangan edi. Bu yerlarda qo‘y, ot, tuya va qoramollar xonlikning markaziy tumanlariga ming-minglab keltirib sotilgan. Shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning keng tarqalganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. Bularga ko‘ra, to‘qimachilik hunari rivojlanib, paxta va ipakdan turli gazlamalar tayyorlangan. Gazlamalar anvoyi ranglar bilan bo‘yalib, ular orasida nafis matolarning qadri yuqori bo‘lgan. Bo‘yoqchilik alohida kasb sifatida qadrlangan. Paxtadan ip yigirish keng tarqalgan. Kalava ip chet mamlakatlarga xususan, Rossiyaga yuborib turilgan. Xonlikda kulolchilik keng tarqalib, xum, tavoq, kosa, piyola, lagan va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlangan.

O‘lkada oltin, kumush, qimmatbaho toshlardan va boshqa ma‘danlardan zargarlik buyumlari tayyorlangan. Turli metallardan buyumlar yasovchi ustalar ko‘p bo‘lgan. Ko‘nchilik keng rivojlanib, turli kiyimlar tikilgan. Xiva xonligida ichki va tashqi savdoning o‘rni katta bo‘lgan. Xiva, Urganch, Xazorasp, Honqa, Toshhovuz, Xo‘jayli, Gurlan, Chimboy va boshqa shaharlar savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan. Bu shaharlardagi katta-kichik bozorlarda xonlikning turli xududlaridan keltirilgan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari sotilgan. Ayniqsa, Buxoro xonligi bilan savdo kuchli bo‘lgan. Bundan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar bilan savdo aloqalari muntazam davom etgan. Bu ko‘chmanchi xalqlardan qoramol, qo‘y-echki, jun, oziq-ovqat mahsulotlari olinib, evaziga gazlama, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari va noz-ne‘matlar berilgan. O‘troq va ko‘chmanchi aholi har jihatdan bir-biriga bog‘langan holda hayot kechirganlar.

⁶Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т., Шарқ. 2000. -300 б.

⁷Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Т.Шарқ. 1998. 25 б.

Xiva xonligi Eron, Afgʻoniston, Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari olib borganlar. Uzoq vaqtlar davomida Xiva savdogarlari Nijniy Novgorod, Orenburg kabi shaharlarda savdo bilan shugʻullanganlar. U yerlarga turli xil gazlamalar, paxta, ipak va boshqa matolar olib borildan. Rossiyadan esa temir, jun, charm, tunuka, movut, qand kabi mollar keltirilgan. Keyingi asrlarda Rossiyadan temir, poʻlat va boshqa metallar olib kelish ortdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Аскарлов А. А. История Узбекистана. Т. 3. –Т., Фан. 1993. – С. 249.
2. Аскарлов А. А. История народов Узбекистана. Т. 2. -Т. Фан. 1947. –С. 182-183.
3. Готье Ю. В. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. -М. “ОГИЗ” 1937. – С. 123.
4. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Т. Чўлпон. 1990.
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т., Шарқ. 2000. -300 б.
6. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Т. Шарқ. 1998. 25 б.